



O‘ZBEK VA RUS XALQ ERTAKLARIDA G‘AROYIB HAYVONLAR OBRAZINING BADIY-ESTETIK TALQINI

Asadov Asadbek Murodjon o‘g‘li

Samarqand shahar maktabgacha va maktab
ta’limi bo‘limi 53-umumiy o‘rta ta’lim
maktabi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek va rus sehrli ertaklaridagi g‘aroyib hayvonlar va qushlar obrazlarining farqlari va o‘xshashliklari komparativ tahlil qilingan. Sehrli ertaklarning badiiy xususiyatlari ikki tilda ham batafsil ko‘rsatilgan. G‘aroyib hayvonlar va qushlar asosan yordamchi obrazlar sifatida ikki xalqning epik asarlarida keng tarqalgan.

Kalit so‘zlar: bulbuligo‘yo, simurg‘, anqo, olovli qush, ertak, Zoomorf, folklorshunoslik.

Xalq ertaklari o‘zining maftunkor sehr-u jozibasi, cheksiz shukuh va dilni rom etuvchi chiroyli hikoyalari bilan doimo inson xayolining mahsulidir. Odamlar o‘z hayotidagi murakkabliklarni yengishdan amalda ojiz bo‘lgan paytlarda, ertak ular uchun nurli qanotlar bilan umidga to‘la joylarga yetaklovchi bir manzil bo‘lib xizmat qilgan. Insoniyat zulmat ichida najot izlagan va asrlar davomida yolg‘iz taqdir yo‘llarida izlanayotgan vaqtlarda, ertaklar xayolning qanotida nurli yo‘llarga olib borgan. Qisqacha aytganda, ertak — bu insoniyatning sof bolalik davrining mahsulidir. Shuning uchun, uning ta’rifi va ifodasiga til ojiz. Biz bilamizki, O‘zbek xalq ertaklari folklorshunos olimlar tomonidan uch turga bo‘lib o‘rganilgan:

1. Hayvonlar haqidagi ertaklar;
2. Sehrli ertaklar;



3. Maishiy ertaklar.

G‘aroyib xususiyatli hayvonlar va qushlar obrazining ishtiroki sehrli ertaklarga xos muhim xususiyatlardan biridir. Bu xususiyat rus va o‘zbek sehrli

ertaklariga baravar xos. Zoomorf¹ shaklidagi g‘aroyib hayvonlar va qushlar timsollari ikki asosiy turga ajratiladi: a) xayoliy; b) hayotiy. Masalan, uchar ot, oltin baliq, oltin tuyoqli kiyik kabi fantastik jonzotlar hamda bulbuligo‘yo, simurg‘, anqo, davlat qushi kabi ornitomorfik² xayoliy timsollar g‘aroyib jonzotlar sifatida tasniflanadi. Bu timsollar, ularning ramziy va madaniy ahamiyati jihatidan, xalq ertaklari va mitologik hikoyalarda o‘zining noyob rolini o‘ynaydi.

Humo qushining pati haqidagi o‘zbek xalq ertagi „**Bulbuligo‘yo**“ ham mashhur rus xalq ertagini („Жар птица“) eslatadi. Bundan ikkala xalq madaniyatining ham azaldan yaqin ildizlari borligini sezish mumkin. Bulbulig‘oyo va Жар-птица (Olov qushi) dagi qushlarning o‘xshash tomonlari sehrli kuchga ega bo‘lib, Bulbulig‘oyoning ovozi sehrli ta’siriga ega edi. Tinglagan odamlarni maftun qilar edi (U chunon sayrabdiki, zamini-zamon, makini-makon larzaga kelibdi. Shahzoda simobdek eribdi...). Жар-птица (Olov qushi) ertagida qush ham sehrli va uning nurlari shunday kuchli edi-ki, bog‘dagi tunni kunduzga aylantirardi. Uning mo‘jizaviy ovozi va yorqinligi odamlarni o‘ziga tortib, o‘zining sehrli dunyosiga olib ketardi. Bu sehrli qush faqat tashqi dunyoni emas, balki odamlarning ichki holatini ham o‘zgartirardi. Yengil bir uyqu, shirin bir tishlash kabi oddiy, ammo kuchli ta’sirlar orqali, hatto eng hushyor va ehtiyotkor odamlar ham sehriga tushib qolardi:

Он закипит лучами, словно солнце; Тогда в саду не ночь, а чудный день,	U quyoshdek nurlari bilan qaynaydi; Shunda bog‘da tun emas, go‘yo ajoyib kun,
---	--

¹ Zoomorf (yunoncha "zoo" — hayvon va "morph" — shakl) atamasi hayvonlarning yoki hayvon xususiyatlarining inson yoki boshqa mavjudotlar, narsalar yoki hodisalarga berilgan shakli yoki tasviri ma’nosini anglatadi.

² Ornitomorfik atamasi, yunoncha "ornithos" (qush) va "morphē" (shakl) so‘zlaridan olingan bo‘lib, qush shaklini yoki xususiyatlarini bildiradi.



И так светло, что ничего не видно! А между тем всё это от неё ж, И тишина, такая тишина И нежная и сладкая, что самый Крепчайший сторож соблазнится: ляжет На дёрн, кулак подложит под висок, Заснёт и спит до позднего обеда! ³	Shunchalik yorug'ki, hech narsa ko'rinmaydi! Bu hammasi — faqat o'sha qushdan, Va sukunat — shunday sukunatki, Yumshoq va shirin — shundayki, Eng hushyor qo'riqchi ham aldangan bo'ladi: Maysaga yotadi, mushtini yostiq qiladi, Uyquga ketadi va uxlaydi... peshinlargacha!
--	---

Har ikki ertakdagi qushlar oddiy mavjudotlar emas. Ularni qo'lga kiritish qahramonlardan nafaqat jasorat, balki aql, sabr va mohirlikni ham talab qiladi. Masalan, o'zbek xalq ertagida yigit Bulbuligo'yoni topish uchun uzoq va mashaqqatli yo'l bosadi, yo'lda turli sinovlarga duch keladi. U o'z maqsadiga yetishish uchun qat'iylik va dovyuraklik ko'rsatadi. Xuddi shunday, Yazykovning Жар-птица (Olov qushi) ertagida ham bu qushni tutish unchalik oson emasligi ta'kidlanadi. Hatto podsho o'zi ham shunday deydi: agar bu vazifani mashhur donishmand Suqrotning o'ziga topshirsangiz, u ham Жар-птица (Olov qushi)ni tutish masalasida bosh qotirib qolgan bo'lardi. Bu esa shuni anglatadiki, qushni tutish oddiy jasorat bilangina emas, balki chuqur tafakkur va dono reja bilan amalga oshiriladigan murakkab vazifadir.

Jahon folklorshunosligida qush obrazining juda ko'p olov bilan bog'liq turlari mavjud bo'lgan. Masalan, Qadimgi sehrli ertaklarda grek xalqining an'anaviy qushi bo'lmish phoenix qushi yetakchi obraz sifatida juda ko'p qo'llanilgan. Feniks qushi – o'lmas qush bo'lib, u uzluksiz qayta tiklanadi yoki boshqa yo'l bilan qayta tug'iladi. U Yunon mifologiyasining bir qismi bo'lsa-da, Misr va Fors kabi ko'plab madaniyatlarda

³ Языковъ, Н.М. Жарь-птица: Драмъ. сказка [въ стихахъ] / Соч. Н.М. Языкова; [Предисл.: П. Перевлесской]. – Москва: М.В. Клюкинъ, ценз., 1901. – 80 с.; 20.



o'xshashlariga ega. Quyosh bilan bog'langan feniks o'zidan oldingi sherigining kulidan ko'tarilib, yangi hayotga ega bo'ladi. Ba'zi rivoyatlarda u alanga olib yonib nobud bo'ladi, desa, boshqalari u qayta tug'ilishdan oldin shunchaki o'lib, parchalanadi deydi.

Aka-uka Grimmlarning "Oltin qush" ("Golden bird"), Slavyan folkloridagi Olovli qush ("Fire bird") haqidagi ertaklarida sehrli qush obrazini ko'rish mumkin. Slavyan folklorida Olov qushi Ohnivak⁴, Zar qushi (Zhar qushi) yoki Qushi Zar (Bird Zhar), shuningdek, Yorqin qush⁵ (Glowing Bird) yoki Yorug'lik qushi⁶ (The Bird of Light) kabi qush obrazlari ham mavjud.

Ramziy-allegorik qissa va hikoyatlarning tarixiy ildizi miloddan oldingi davrlarga borib taqalsa-da, musulmon Sharq mumtoz adabiyotida qushlar sayri bilan bog'liq ilk asar sifatida Ibn Sinoning "Tayr qissasi" ("Qush qissasi") risolasi, Homid G'azzoliyning "Risalat at-tayr" ("Qush risolasi") asari, Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" asari va Alisher Navoiyning umrining so'nggi pallasida yozgan "Lison ut-tayr" asarlarida e'tirof etiladi.

XULOSA.

O'zbek va rus xalq ertaklarida g'aroyib hayvonlar obrazi xalqning qadimiy dunyoqarashi, axloqiy mezonlari va estetik didini aks ettiruvchi muhim badiiy vosita hisoblanadi. Har ikki xalq ertaklarida g'aroyib hayvonlar ko'pincha ijobiy yoki salbiy obrazlarda namoyon bo'lib, bosh qahramonning sinovdan o'tishi, maqsadga erishishi yoki yovuz kuchlar ustidan g'alaba qozonishida muhim rol o'ynaydi. Xulosa qilib aytganda, o'zbek va rus ertaklaridagi g'aroyib hayvonlar obrazi har ikki xalqning milliy an'analari,

⁴ Harding, Emily J. Fairy tales of the Slav peasants and herdsmen. London: G. Allen. 1886. – P.265–292.

⁵ Tzarevich Ivan, the Glowing Bird and the Grey Wolf" In: Wheeler, Post. Russian wonder tales: with a foreword on the Russian skazki. London: A. & C. Black. 1917. – P. 93-118.

⁶ Russian Folk-Tales by Alexander Nikolaevich Afanasyev. Translated by Leonard Arthur Magnus. – New York: E.P. Dutton and Company. 1916. – P.78-90.



axloqiy qadriyatlari va estetik qarashlarini aks ettiruvchi, chuqur ma'naviy mazmunga ega bo'lgan badiiy timsollardandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-xalq-ogzaki-ijodi/uzbek-xalq-ertaklari/Bulbuligo'yo>
2. ЯЗЫКОВЪ, Н.М. Жаръ-птица: Драмъ. сказка [въ стихахъ] / Соч. Н.М. ЯЗЫКОВА; [Предисл.: П. Перевлесской]. – Москва: М.В. Клюкинъ, ценз., 1901. – 80 с.; 20.
3. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. -O': "Musiqqa" nashriyoti, 2010.
4. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. -O': "Mumtoz so'z", 2010
5. O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi. Mirzayev T va boshqalar. -T.: "Aloqachi", 2008.
6. Imomov K., Mirzaev. -T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – T.: «O'qituvchi», 1990.
7. Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetic ijodi. –T.: "Sharq" nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2003.